“O‘zkimyosanoat” AJ ishchi guruhi joylarda aholi muammolarini o‘rganmoqda

// 13.03.2025
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-ishchi-guruhi-joylarda-aholi-muammolarini-



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda tomorqalardan samarali foydalanishni tashkil etish orqali aholi bandligi va daromadlarini oshirishga qaratilgan ishlarni yanada jadallashtirish to‘g‘risida”gi farmoyishida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan “O‘zkimyosanoat” AJ rahbariyati va mas'ullaridan iborat ishchi guruhi hududlarda bo'lib turibdi.



Tomorqalardan samarali foydalanishni tashkil qilgan holda aholi daromadlarini oshirish, kambag‘al oilalar bilan manzilli ishlash maqsadida o‘tkazilayotgan sayyor qabullarda aholi murojaatlari tinglanmoqda.



Xususan, mana shunday sayyor qabullar Farg'ona viloyati Yozyovon tumanining “Yangi Bo‘ston” va

“Yangiobod” MFYlarida istiqomat qilayotgan yurtdoshlar bilan tashkil etildi.
Unda tomorqa yerlaridan samarali foydalanish, buning uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ekin ekishga tayyorlash ishlarini tashkil etish va bunda aholiga ko‘maklashish masalalari muhokama qilindi.



Aholi murojaatlari tinglanib, ularning yechimi yuzasidan amaliy choralar ko'rildi.



“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati